# SCIENCE
# PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

2/S-son (4-jild)
2024

ISSN: 2181-1342 (Online)
Сайт: https://scienceproblems.uz
DOI: 10.47390/SPR1342V4SI2Y2024

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ S/2 (4) – 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

**БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

*07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймахамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

*08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

*09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

*10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

*12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

*13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

*19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

*22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

*23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

**ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ**

*Полвонов Козимбек*
ЎЗБЕКИСТОННИНГ ЖАНУБИЙ ШАҲАРЛАРИ ТОПОНИМИГА ОИД МАЪЛУМОТЛАР ........ 10-15

*Xadjamuratova Matlyuba*
MAKTABGACHA TA’LIMDA BOLALARNI IJTIMOIY HIMOYA QILISHGA INNOVATSION YONDOSHUVNING DOLZARBLIGI ........ 16-21

*Шовкатов Шокир Шовкат ўғли*
АБУЛ-ЮСР ПАЗДАВИЙ ИЛМИЙ МЕРОСИНИ ЎРГАНИШДАГИ ЁНДАШУВЛАР ........ 22-31

*Mo‘minov Xusanboy Madaminjonovich, Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o‘g‘li*
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SUD QONUNCHILIGIGA KIRITILGAN O‘ZGARISHLAR VA ULARNING AHAMIYATI ........ 32-36

*Пардаев Асрор*
ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИ АҲОЛИСИНИ ХАЛҚ ИСТЕЪМОЛИ ВА ОЗИҚ-ОВҚАТ МАҲСУЛОТЛАРИ БИЛАН ТАЪМИНЛАШ МАСАЛАЛАРИ ........ 37-42

**08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ**

*Умурзақова Мўътабархон Нодир қизи*
ЖАХОНДА ТИББИЙ СУҒУРТА ТИЗИМИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ ........ 43-52

*Рахманов Зафар*
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА ДЕПОЗИТ ОПЕРАЦИЯЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИНИ БАҲОЛАШ ........ 53-62

*Аминов Фазлитдин Бахадирович*
РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ СЕМЕЙНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В ЭКОНОМИКЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ........ 63-70

*Курбонова Шахриноз Авазхоновна*
ИҚТИСОДИЁТНИ ДИВЕРСИФИКАЦИЯЛАШ ЖАРАЁНЛАРИДА АСОСИЙ ВОСИТАЛАР ТАҲЛИЛИНИ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ ........ 71-81

*Azimova Hulkar Egamberdiyevna*
KREDIT PORTFELINI SAMARALI BOSHQARISHDA TIJORAT BANKLARINING O‘RNI ........ 82-87

*Rajabov Orzujon* Mamasoliyevich
LOGISTIKA XIZMATLARINI KO‘RSATISHDA BUYUMLAR INTERNETI (INTERNET OF THINGS)DAN FOYDALANISH ........ 88-93

*Саидов Сарвар Хайруллоевич*
ДАВЛАТ ХИЗМАТЧИЛАРИДА БОШҚАРУВ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ БОРАСИДА ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ ........ 94-104

*Сержанов Аймурат Медетбаевич*
ХАЛҚАРО АМАЛИЁТ ВА ЎЗБЕКИСТОНДА РАҚАМЛИ БАНКЛАР ХИЗМАТЛАРИНИ ЯРАТИШ ЗАРУРИЯТИ ........ 105111

*Туробов Шерзод Алишерович, Ибодуллаев Зафар Ибодуллаевич*
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ ........ 112-119

*Daniyarova Feruza Baxriddinovna, Chinorova Shahodat Mansur qizi*
O’ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH YO’LLARI ........ 120-126

*Temirova Feruza Sagdullayevna*
XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI VA BRENDGA SODIQLIK ........ 127-132

*Sharipova Shaxzoda Xasanovna*
YANGI O‘ZBEKISTONDA TURIZM MADANIYATINI YUKSALTIRISH ISTIQBOLLARI ........ 133-138

**09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ**

*Алимова Шахноза Хамидовна*
НОГИРОНЛИГИ БОР ЁШЛАР - АЛОҲИДА ХУСУСИЯТГА ЭГА ИЖТИМОИЙ-ДЕМОГРАФИК ГУРУҲ СИФАТИДА ........ 139-147

*Асракулова Адиба Набиевна*
“ЁШЛАР ВА БИЗНЕСНИ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ ЙИЛИ” НИНГ ҚАБУЛ ҚИЛИНИШИ ТАДБИРКОРЛАРНИНГ ИҚТИСОДИЙ ТАФАККУРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ АҲАМИЯТИ ........ 148-154

***10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ***

*Teshabayeva Dilfuza Muminovna*
LEXICAL PROBLEMS OF TRANSLATING THE NAMES OF NEW PHENOMENA IN MASS MEDIA ........ 155-160

*Rustamov Ilxom Tursunovich, Inog’omjonova Robiya Rustamjon qizi*
INTERFERENSIYA HODISASINING TILDA AKS ETISHI XUSUSIDA OLIMLARNING TADQIQOTLARI VA QARASHLARI ........ 161-165

*Abdikhamidova Sevinch Obidjon kizi*
PROBLEMS FACED IN TRANSLATING PROPER NOUNS ........ 166-170

*Djurakulova Elmira Suyunova*
SHOYIM BO‘TAYEV ROMANLARIDA BADIIY XRONOTOP VA MIFOLOGIK TALQIN ........ 171-177

*Dalieva Madina Khabibullaevna*
THE ROLE OF BLENDING THEORY IN POLYSEMY AND METAPHOR ........ 178-183

*Жўраева Ирода Ахмедовна*
ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК АНТРОПОНИМИК ЛУҒАТЛАР ТИПОЛОГИЯСИ ........ 184-189

*Iminova Shahnoza-Begim Bahodirovna*
INGLIZ TILIDA INSONNING IJOBIY AQLIY XUSUSIYATLARINING IFODALOVCHI BIRLIKLARNING KONSEPTUAL, LINGVO-MADANIY XUSUSIYATLARI ........ 190-193

*Irgasheva Shoxida Sadriddinovna*
INTERNET DISKURSIDAGI IQTISODIY NEOLOGIZMLARNI TARJIMA QILISH XUSUSIYATLARI ........ 194-200

*Tursunova Zarina Farxodovna*
LINGVISTIKADA EMOTLARNI O‘RGANISHGA ZAMONAVIY YUNDASHULAR (INGLIZ TILI ASOSIDA) ........ 201-205

*Satibaldiyev Erkinjon Kamilovich*
PARADIGMATIC SOUND INTERFERENCE IN THE ENGLISH SPEECH OF TURKOPHONES ........ 206-212

*Radjabova Hafiza Shukrulloyevna*
INGLIZ VA O‘ZBEK TERMINOLOGIYASINING METODOLOGIK ASOSLARI ........ 213-220

*Avezova Dilovar Salimovna*
TAXALLUSLARNI O’RGANISHNING NAZARIY JIHATI ........ 221-225

*Alikberova Kamila Adhamovna*
A CRITICAL ANALYSIS OF LANGUAGE USE AND LANGUAGE ACQUISITION ..................... 226-232

*Rakhmatova Bahara Ibodulla qizi*
THE ROLE OF LEGAL DISCOURSE IN MODERN LINGUISTICS ............................................... 233-238

*Valieva Nargizakhon Zamir kizi*
COMPARATIVE ANALYSIS OF “KITE RUNNER” AND “A THOUSAND SPLENDID SUNS” BY KHALED HOSSEINI: THEMES, CHARACTERS, AND SOCIOPOLITICAL CONTEXT............. 239-244

*Mamatqulova Zilola Rejabaliyevna*
RISHTON KULOLCHILIK MAKTABI KASB-HUNAR LEKSIKASINING STUKTURAL TASNIFI ................................................................................................................................ 245-251

*Alimova Kamola Tursunovna*
CHALLENGES IN PREPARATION OF GUIDE TRANSLATORS ................................................. 252-258

*Сейтимбетова Айкумар Пулатбаевна*
ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В АНГЛИЙСКОМ, РУССКОМ И КАРАКАЛПАКСКОМ ЯЗЫКАХ.......................................... 259-264

*Бегжанова Айсилиу Махмудовна*
ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА КОМПЬЮТЕР ЛИНГВИСТИКАСИ ТЕРМИНЛАР ТИЗИМИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ .......................................................................265-270

*Kubanova Ilmira Sharifovna*
EXPLORING ABBREVIATED RAILWAY TERMINOLOGY IN ENGLISH: A COMPREHENSIVE ANALYSIS ........................................................................................................................ 271-275

*Azamjonova Sarvinoz*
USE OF TOPONYMS IN MODERN FRENCH MEDIA ............................................................. 276-282

**12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР**

*Muxiddinova Dildora Muxidddinovna*
O‘ZBEKISTONNING BOJXONA FAOLIYATIGA KIOTO KONVENSIYASINI JORIY ETISHNING HUQUQIY JIHATLARI VA JSTGA A’ZOLIKNING TA’SIRI ........................................................ 283-292

*Asadov Eldorjon Nizomiddin o‘g‘li*
SOLIQ NAZORATI HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI INSTITUTINING MUHIM OMILI ......................................................................... 293-298

*Mustanov Ilxom Abdivalijonovich*
BANK QONUNCHILIGINI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIKNING NAZARIY-HUQUQIY JIHATLARI ...................................................................................................................... 299-304

*G‘oyibov Jo‘rabek Choriyevich*
YOSHLAR MIGRATSIYASI: MUAMMO VA YUTUQLAR TAHLILI ........................................... 305-309

**13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

*Kuziyev Otabek Chuliyevich*
TALABALARDA AXBOROT MODELLASHTIRISH KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM UCH BOSQICHI ....................................................................................................... 310-314

*Fattaxova Diloram*
TIL O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN KOMPYUTER METODLARI ...................................... 315-321

*Moydinova Elmira*
APPLICATION OF FLIPPED LEARNING METHODS IN THE UNIVERSITY

CLASSROOM ........ 322-326

*Xodiyeva Gulhayo Hasan qizi*
ZAMONAVIY BOSHLANG'ICH TA'LIMDA 4K MODELI KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHGA INTEGRATIV YONDASHUVNING MOHIYATI ........ 327-333

*Doniyorova Gulrux Shoniyozovna*
AVTOMOBILSOZLIK YO'NALISHI TALABALARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA DASTURIY VOSITALARNING AHAMIYATI ........ 334-338

*Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna*
RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIMINING ASOSIY NAZARIYALARIDA TA'LIM OLUVCHINING ANALITIK QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI ........ 339-344

*Xo'jamberdiyeva Dilfuza Ikramovna*
DARSLIK BILAN ISHLASH O'QUVCHILARNING AXBOROT KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA ........ 345-351

*Mamaraimov Bekzod Qodirovich*
O'QUVCHILARNING TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH VA ULARNING QIDIRUV FAOLIYATIGA TAYYORLIGI ........ 352-356

*Xudayberdiev Nurislam Nuralievich*
BO'LAJAK O'QITUVCHILARINING RAQAMLI KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK MEXANIZMI ........ 357-363

*Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich*
TALABALARINING O'QUV FAOLIYATI VA ILMIY IZLANISHLARIDA SUN'IY INTELLEKT: IMKONIYAT VA CHEGARALAR ........ 364-369

*Teshaboyeva Shahodat*
ZAMONAVIY SHAROITDA SHAXSNING KASBIY HUQUQIY MADANIYATI ........370-375

*To'rayeva Dilnoza Ismoilovna*
RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH USLUBIY TAYYORGARLIKNING BIR QISMI SIFATIDA ........ 376-380

*Beknayeva Shaxnoza Vladimirovna*
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA INNOVATSION JARAYONLAR ........ 381-388

*Dusyarov Salimjon Xudaymuratovich*
HARAKATLI O'YINLAR ASOSIDA MAKTAB O'QUVCHILARIDA JISMONIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH ........ 389-393

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ S/2(4)-2024
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

**Daniyarova Feruza Baxriddinovna**
O'zbekiston milliy universiteti Iqtisodiyot fakulteti katta o'qituvchisi, PhD

**Chinorova Shahodat Mansur qizi**
1-kurs talabasi

## O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH YO'LLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mamalakatning iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarning ahamiyati shuningdek ularni jalb qilish yo'llari va xorijiy investorlarni jalb etishda yuzaga keladigan muammolarga qaratilayotgan chora-tadbirlarning amalga oshirilayotgani bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan. Mamalakatimizdagi xorijiy investitsiyalarning jozibadorligini yanada oshirishga qaratilgan taklif va mulohazalar ham berib o'tilgan.
**Kalit so'zlar:** To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya, asosiy kapital, portfelli investitsiya, sof investitsiya oqimi, xalqaro savdo, internalizatsiya, integratsiya, modernizatsiya, diversifikatsiya, UNCTAD

**Daniyarova Feruza Bakhriddinovna**
Senior lecturer of the Faculty of Economics of the National University of Uzbekistan, Ph.D

**Chinorova Shahodat Mansur qizi**
1st year student

## WAYS TO ATTRACT FOREIGN INVESTMENTS TO THE ECONOMY OF UZBEKISTAN

**Abstract.** In this article, the importance of foreign investments in the country's economy, as well as the ways of their attraction and the implementation of measures focused on the problems of attracting foreign investors, were conducted. Proposals and opinions aimed at further increasing the attractiveness of foreign investments in our country were also given.
**Keywords:** Foreign direct investment, fixed capital, portfolio investment, net investment flow, international trade, internalization, integration, modernization, diversification, UNCTAD

**Даниярова Феруза Бахриддиновна**
Старший преподаватель экономического факультета Национального университета Узбекистана, к.э.н.

**Чинорова Шаходат Мансур қизи**
студент 1 курса

## ПУТИ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В ЭКОНОМИКУ УЗБЕКИСТАНА

**Аннотация.** В данной статье проведено значение иностранных инвестиций в экономику страны, а также пути их привлечения и реализации мер, ориентированных на проблемы привлечения иностранных инвесторов. Также были высказаны предложения и мнения, направленные на дальнейшее повышение привлекательности иностранных инвестиций в нашу страну.

**Ключевые слова:** Прямые иностранные инвестиции, основной капитал, портфельные инвестиции, чистый инвестиционный поток, международная торговля, интернализация, интеграция, модернизация, диверсификация, ЮНКТАД

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI2Y2024N15

**Kirish.** Bugungi kunda jahon mamlakatlaridagi deyarli barcha davlatlarda fan va texnologiyalar jadal rivojlanib bormoqda va bu mamlakatlarning iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarning, ayniqsa to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatini oshirmoqda. Texnik jihatdan yalpi asosiy kapitalning shakllanishi deb ataladigan asosiy kapitalga yirik mablag'lar kiritilmasa, iqtisodiyot o'zining ishlab chiqarish salohiyatini sezilarli darajada rivojlantira olmaydi. Investitsiyalar nisbati (YaAKSH/YaIM) uning rivojlanish qobiliyatining yaxshi ko'rsatkichidir. Darhaqiqat, mamlakatning investitsiya koeffitsiyenti va uning iqtisodiy o'sish sur'ati o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri proparsional bog'liqlik iqtisodiyotdagi bir nechta inkor etilmaydigan qonuniyatlardan biridir[1]. 2022-yida Jahon bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar miqdori 2021-yilga nisbatan 12%ga kamayganligini ko'rishimiz mumkin.




**1-rasm. 2022-yilda Jahon to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning 2021-yilga nisbati [2].**

Ushbu diagrammadan shuni ko'rishimiz mumkinki, Jahon bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning miqdori submintaqa bo'yicha 2021-yilga qaraganda 2022-yilda 12%ga kamaygan, shundan Yevropa mintaqasida 2022-yilda 2021-yilga nisbatan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar miqdori 56 mlrd.dollarga kamaygan, Shimoliy Amerika submintaqasida esa, 115 mlrd. dollarga. Afrika submintaqasida 35 mlrd.dollarga kamayganini ko'rishimiz mumkin. Lotin Amerikasi va Karibbean submintaqasida esa 70 mlrd.dollarga oshganini va Osiyo mintaqasida esan 2021-yilga nisbatan o'zgarmagankligini ko'rishimiz mumkin [2]. Biroq to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning ko'proq qismi rivojlangan mamalakatlar hissasiga to'g'ri keladi. Bunday vaziyatda mamlakatimizdagi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya miqdorini oshirishga qaratilgan ustuvor yo'nalishlar aniqlab olishning ahamiyati ortib bormoqda.Investitsiyalar va ularning ahamiyati haqida mamlaktimiz prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev quyidagi fikrlarni aytib o'tganlar: "Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotini barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya - bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Investitsiya bilan birga turli soha va

tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg'or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi" [3]. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham "Mamlakatdagi investitsion muhitni yanada isloh qilish va uning jozibadorligini oshirish maqsadida, kelgusi besh yil ishida 120 milliard AQSH dollar, jumladan 70 milliard AQSH dollar miqdoridagi xorijiy investitsiyalarni jalb qilish choralarini ko'rish" [4] kabi ustuvor vazifalar belgilab olingan. Shuningdek ushbu maqolada mamlakatimiz hududlarida xorijiy investitsiyalarning hududlar kesimidagi tahlili hamda uning jozibadorligini yanada oshirish bo'yicha bir qator rivojlangan mamlakatlarning tajribalarini o'rganib chiqqan holatda taklif va mulohazalar keltirilgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Bugungi kunda mamalakatimizga kiritilayotgan investitsiyalar, ayniqsa tashqi investitsiyalarning o'rni katta. Chunki, ko'plab kiritilgan investitsiyalar tufayli ham sanoatda , ham ishlab chiqarishda, ham qishloq xo'jaligida, ham aholi banligini ta'minlashda sezilarli ro'l o'ynamoqda. Xorijiy investitsiyalarni bir necha usulda kiritish mumkin. Umuman olganda chet el investitsiyalarining ikki turi mavjuddir . Ular xorijiy portfelli investitsiyalar va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardir. Xorijiy portfelli investitsiyalarini asosan qimmatli qog'ozlar: aksiya, obligatsiya va boshqalar tashkil qilsa, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar asosan korxona barpo etish, mavjud binolar yoki korxonalarni rekonstruksiya qilish, ishlab chiqarish hajmini oshirish va shu kabi sohalarga kiritiladi. Bizning o'lkamizga to'g'ridan to'g'ri investitsiya kiritishning bir qanccha afzalliklari bor hamda biz buni sof investitsiya oqimi deb ham atashimiz mumkin.. Kiritilayotgan ko'pgina investitsiyalarning asosiy qismi bevosita investitsiyalar ekanligini ko'rishimiz ham mumkin. Mamlakatimiz rahbari tomonlaridan ham bu sohani keng rivojlantirishga qaratilgan bir qator farmonlari ham ishlab chiqilmoqda. "O'tish iqtisodiyoti mamlakatlarning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning jozibadorligini belgilab beruvchi beshta omil mavjud bo'lib , ular [5]:

- Bozor omillari(ichki bozor va eksport imkoniyatlari);
- Boy tabiiy resurslarning mavjudligi;
- Ishlab chiqarish harajatlari omillari;
- Investitsiya muhiti;
- Mamlakatning iqtisodiy rivojlanish strategiyasi

Mahalliy hamda xorijiy bir qator olimlar tomonidan To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar to'g'risida turli qarashlar va nazariyalari mavjud bo'lib, ularning ayrimlariga to'xtalib o'tamiz:

R.Vernonning Xalqaro tovar ishlab chiqarish nazariyasiga ko'ra,u to'g'ridan-to'g'ri xorijiy ishlab chiqarish hamda xalqaro savdo oʻrtasidagi o'zaro munosabat, tovarning hayotiy tsikliligi kabi muammolarga diqqatini qaratadi [6].

P.Bakkli va M.Kassonning Internalizatsiya nazariyasida ular internalizatsiya, integratsiya va toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalar muammolarini o'rganishgan hamda tatbiq qilishgan [7].

B.A.Vaxobovning fikriga ko'ra, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bu investorga iqtisodiy faoliyati ustidan ta'sirchan nazorat qilish imkonini beradigan investorning uzoq muddatli, firmaning kamida 10%i ulushiga yoki aksiyadorlar kapitaliga egalik qilishiga imkon beradigan investitsiyalardir [8].

**Muhokama va natijalar.** Bugungi kunda sodir bo'layotgan globallashuv tufayli barcha mamalakatlarning kelgusidagi rivojlanishi va taraqqiy etishida xorijiy investitsiyalarning o'rni sezilarli darajada o'sib bormoqda. Ayni vaqtlarda mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun investitsiyalarning xususan xorijiy investitsiyalarning amalga oshirilayoygan investitsion islohotlardagi o'rnini yuqori baholashimiz mumkin. "Hayotning o'zi va o'tgan yillar tajribasi hududlarni kompleks rivojlantirishni va infratuzilma faoliyatini tubdan o'zgartirishni ta'minlashdagi jiddiy kamchiliklarni bartaraf etishni talab qilmoqda" deya ta'kidlaydilar mamlakatimiz prezidenti SH.M.Mirziyoyev. Respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy rivojlanishida investitsiyalarnng ayniqsa xorijiy investitsiyalarning o'rni kattadir. Bilamizki, barcha mamalkatlar jahon tajribalarini o'rganmasdan, jahonning rivojlangan, yetakchi mamlakatlarining ilm, fan, texnika va texnologiyalar sohasidagi erishgan yutuqlarini o'rganmasdan, qabul qilmasdan rivojlana olmaydi.

Respublikamizdagi xorijiy investitsiyalarning ayniqsa to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni yanada rivojlantirishdagi paydo bo'ladigan muammolarni hal etish, chet el sarmoyalari va kapital quyilmalarini jalb qilishdagi muammolarni o'rganish va yechim topish hamda xorijiy investorlar miqdorini kopaytirish va ularga yetarlicha shart-sharoit yaratib berish bozor iqtisodiyotiga o'tishdagi navbatdagi vazifalardan biridir. UNCTADning 2023 yilgi Jahon investitsiya hisoboti shuni ko'rsatadiki,2021-2022-yillar davomida Osiyo qit'asidagi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar umimiy miqdori o'zgarmagan lekin ularning 80%miqdori beshta hududga ya'ni, Xitoy, Singapur, Hong-Kong(Xitoy), Hindiston va Birlashgan Arab Amirliklariga to'g'ri keladi [9].




**2-rasm. Rivojlanayotgan Osiyo mintaqasidagi 2022-yildagi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning miqdorini 2021-yilga nisbati [9]**

Yuqoridagi diagrammadan shuni ko'rishimiz mumkinki, Bizning respublikamiz joylashgan Markaziy Osiyo mintaqasida 2021-yilga nisbatan 2022-yilda 39foiz miqdorida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyaning oqimi oshganligini ko'rishimiz mumkin.Xususan O'zbekiston Respublikasiga 2021-yilga nisbatan bevosita xorijiy investitsiyaning miqdori 11 foizga ya'ni 3 milliard AQSHdollarga oshganligini ko'rishimiz mumkin[9]. 2023yil yurtimizda jami 352,1 trillion so'm asosiy kapitalga investitsiya o'zlashtirilib,2022yildagidan 122,1 foiz

oʻsdi. Markazlashmagan moliyalashtirishning manbalari haqida gap ketganda, to’g’ridan-to’g’ri va kafolatlanmagan xorijiy investitsiyalar hamda kreditlar hisobidan o’zlashtirililayotgan sarmoylarning o’rnini yuqori baholash mumkin. Bu turdagi investitsiiyalar 166,7 trillion so’mni yoki jami investitsiyalarning 47,4 foiozini hamda 2022-yildagiga qaraganda 156,2 foizga o’sgan. Mamlakatimizda Xitoy davlatidan o’zlashtirilayotgan investitsiyalar qolganlariga nisbatan eng yuqorida turadi. Hamda ushbu mamalakatdan o’zlashtirilayotgan investitsiyalar miqdori jami o’zlashtirilgan xorijiy investitsiyalarning 25,6 foizi yoki 48,1 trillion so’mni tashkil etmoqda. Rosiya hududidan ham o’zlashtirilayotgan investitsiyalar miqdori 25,2 trillion so’mni yoki jami o’zlashtirilgan investitsiyalarning 13,4 foizini tashqil qiladi shuningdek Turkiyadan hanm 12 trillion miqdorida investitsiya o’zlashtirilgan bo’lib bu jami o’zlashtirilgan investitsiylarning miqdoriga nisbatan 6,4 foizni tashkil qilmoqda [10].

3-rasmdagi ma’lumotlarga tayanib biz shuni aytishimiz mumkinki, 2018-2022-yillarda O’zbekistonga jalb qilingan toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiyi investitsiyalarning oqimini YaIMga nisbatan foizlarda tahlil qilib chiqadigan bo’lsak, Oʻzbekistonning 2022-yildagi toʻgʻridan-toʻgʻri qabul qilingan xorijiy investitsiyalarining miqdori 2.53 mlrd AQSH dollarini tashkil qilgan bu esa 2021-yilga nisbatan tahminan 11 foizga oshganini ko’rsatadi. 2021-yil uchun Oʻzbekistonning toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalari 2,28 mlrd AQSH dollarni tashkil etdi, bu 2020 yilga nisbatan 31,67 foizga oʻsdi. 2020 yil uchun Oʻzbekistonning toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalari 1,73 mlrd AQSH dollarini tashkil qildi , bu 2019-yilga nisbatan 25,39 foizga kamaygan edi. 2019 yildagi Oʻzbekistonga kiritilgan toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyasining miqdori esa 2,32 mlrd AQSH dollarini tashkil qilgan boʻlsa bu oʻtgan 2018 yilga nisbatan 270,82 foizga o’sganini koʻrishimiz mumkin.




**3-rasm. 2018-2022 yillarda O’zbekistonga jalb qilingan toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalar oqimi mlrd AQSH dollarida YaIMga nisbatan foizda [11]**

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida Oʻzbekistonga jami 352,1 trln. soʻm miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar oʻzlashtirildi va bu 2022-yilning mos davriga nisbatan 122,1 foizni tashkil qildi. Jami oʻzlashtirilgan investitsiyalarning 187,9 trln. soʻmini xorijiy investitsiyalar va kreditlar tashkil qilgan. Bulardan toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalarning miqdori 84,3 trln.soʻmni tashkil qilib oʻtgan yilga nisbatan 196,4 foiz miqdorida oshganidan dalolat beradi shuningdek bu jami investitsiyalardagi ulushi 2022-yilning mos davriga qaraganda 9,1 foiz punktga ko’tarilib, 24,0 foizni tashkil qildi. Bundan tashqari Oʻzbekiston

Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan moliyalashtirgan asosiy kapitalga investitsiyalarning miqdori 21,2 trln. So‘mni yoki 2022-yilga qaraganda 130,3 foizga oshgan hamda bu jami investitsiyalarning 6,0 foizini tashkil qilmoqda. Kafolatlanmagan xorijiy kreditlar va boshqa turdagi xorijiy investitsiyalar tomonidan moliyalashtirilgan asosiy kapitaldagi investitsiyalar 82,4 trln.so‘mni tashkil qilib, bu 2022-yildagiga nisbatan 129,2 foizga oshganligini ko’rsatadi va uning ulushi 23,4 foizga teng [12]. 4-rasmda mamalakatimizda 2023-yilning dekabr-yanvar oylaridagi hududlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlar haqida ma’lumot berilgan bo’lib, unga ko’rsa, O’zbekiston Respublikasidagi to’g’ridan –to’g’ri xorijiy investitsiyalarning miqdori jami 84311,6 mlrd.so’mnji tashkil qildi. O’zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlarning miqdori esa 21153,4 mlrd.so’mni va kafolatlanmagan boshqa investitsiya va kreditlarning miqdori 82419,8 mlrd. So’mni tshkil etayotganligini ko’rishiniz mumkin. Hududlar kesimida ham qaraydigan bo’lsak 2023-yil hisobi bo’yicha eng ko’p to’g’ridan-to’g’ri xorijiy investitsiya kiritilgan hudud bu Buxoro viloyati hisoblanadi va uning miqdori 12496 mlrd. So’mni tashkil qilsa, eng kami esa Xorazm viloyatiga to’g’ri kelib uning miqdori 1399,7 mlrd. So’mni tashkil qilgan. O’zbekiston Respublikasining kafolati ostidagi xorijiy kreditlarning 2023-yildagi umumiy miqdori 21153,4 mlrd.so’mni tashkil qilib, eng ko’p miqdordagisi Toshkent shahriga to’g’ri kelib uning miqdori 8244,7 mlrd.so’mni tashkil qilsa, eng kam ko’satkich Sirdaryo viloyatiga to’g’ri keladi ya’ni 101,1 mlrd.so’m. Mamlakatimizda kafolatlanmagan boshqa investitsiya va kreditlarning jami miqdori 82419,8 mlrd so’mni tashkil qiladi,bu yo’nalisgdagi eng yuqori ko’rsatkichda Toshkent viloyati turadi ya’ni 17432,3 mlrd.so’m va eng past ko’rsatkich esa Surxondaryo viloyatiga to’g’ri kelib, 2520,8 mlrd.so’mni tashkil qiladi [11].




**4-rasm. O’zbekiston Respublikasi hududlari kesimida asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar, mlrd.so’m [11]**

O’zbekiston respublikasida 2023-yi mobaynida kiritilga xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi bo’yicha sanoat sohasida 38 foiz, tashish va saqlash sohasida 5,4 foizni, suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya 1,8 foiz, qishloq xo’jaligida 5.4foiz, sog’liqni saqlashda 1.9 foiz, axborot va aloqada 2.4 foiz, tog’-kon sanoatida 14,9 foiz, qurilishda 2,6 foiz, boshqa faoliyat turlarida 7.8 foizva elektr, gaz bilan ta’minlashda esa 19.8 foioz miqdori to’g’ro keladi.

Mamlakatimiz hududida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning mamlakatimizning YaIM ning hajmidagi miqdori va sonining o'sib borishi O'zbekiston hududidagi chet el davlatlari bilan hamkorlikdagi qo'shma korxonalarning miqdorini oshib boratyotganligidan dalolat beradi.

**Xulosa.** Xulosa o'rnida shuni aytib o'tmoqchimanki, yuqorida ta'kidlab o'tilgan takliflarni amaliyotda qo'llash orqali milliy iqtisodiyotimizda xorijiy investitsiyalarning o'rni va sonini yanada oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Natijada mamlakatimizda ishlab chiqarish sohalarida texnika va texnologiyalarning yanada yangilanishiga, iqtisodiyotimizda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirilishiga, sanoatni zamonaviylashtirishga ya'ni modernizatsiya qilish bilan birgalikda diversifikatsiya qilishga keng imkoniyatlar ochiladi. Bu o'zgarishlar natijasida mamlakatimizda kelgusidagi investitsion siyosatni amalga oshirishimiz uchun ham yetarlicha shart-sharoitlar yaratiladi. Albatta, hozirgi davrda ham investitsiyalar natijasida aniqsa mamlakat uchun kiritilayotgan tashqi investitsiyalarning natijasida ko'plab sohalarda bir qancha o'zgarishlar va islohotlarni amalga oshirilmoqda va buning natijasida mamlakatimizning ham ijtimoiy, ham iqtisodiy salohiyatlarini rivojlantirishga etishilmoqda.

**Адабиётлар/Литература/References:**


1. «Iqtisodiyot qanday tuzilgan»/ Ha-Joon Chang, ingliz tilidan Dilnoza Jabborova tarjimasi. Toshkent: «Butikbooks» МЧЖ, nashriyoti,2022. 225-bet
2. https://unctad.org/publication/world-investment-report-2023
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi// Xalq so'zi, 29 dekabr, 2018 yil.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 28.01.2022 йилдаги ПФ-60-сон
5. Maxmudov N.M., Avazov N.R. "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalardan samarali foyalanish yo'llari": Ilmiy-ommabop risola.-T.:TDIU, 2019y.-104b
6. Vernon R. International investment and international trade in the product cycle // Quarterly Journal of Economics. 2016. № 80. P. 190-207.
7. Buckley P., Casson M. The optimum timing of foreign investment // Economic Journal. 1981. № 91. P. 75-87.
8. A.B.Vaxobov. Xorijiy investitsiyalar. – Toshkent: Moliya, 2010. – T. – O'quv qo'llanma.
9. https://unctad.org/news/investment-flows-developing-countries-asia-remained-flat-2022
10. https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/50602-yurtimiz-iqtisodiyoti-raqamlarda-2
11. https://www.macrotrends.net/global-metrics/countries/UZB/uzbekistan/foreign-direct-investment
12. https://stat.uz/img/press-relizlar/investitsiya_uzb_23_01.pdf

SCIENCE PROBLEMS.UZ

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V4SI2Y2024

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ S/2 (4) – 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари"** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).